



TA'LIM TIZIMIDA INSON RESURLARINI BOSHQARISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

F. A.Kattaxonova

Qo qon pedagogika texnikumi maktabgacha
kafedrası o'qituvchisi

D.A. Shermatova

Qo'qon pedagogika texnikumi yetakchi
o'qituvchisi

Mamlakatimizdagi mustaqil, huquqiy demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyat qurish yo'lidagi ulkan ishlar inson mohiyatini yangidan kashf qilishga, uning o'zligini anglashdagi imkoniyatlarini ruyobga chiqarishga va ma'naviy barkamol, intellektual hamda aqliy amaliy jihatdan mukammal yetuk kadrlarni tayyorlash uchun yangi shart - sharoitlar yaratib bermoqda.

Prezidentimiz tashabbuslari bilan xukumatimiz tomonidan yaratilgan sharoitlar bois amalga oshirilayotgan Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil "Oliy majlisga murojaatnomasi"da "Yosh avlodni har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor berish va bu borada "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Mustaqillik tufayli o'z taraqqiyot yo'lidan borayotgan O'zbekistonda yangicha fikrlaydigan, bo'layotgan voqea-hodisalarga erkin munosabat bildiradigan ijodiy va tanqidiy mushohada yuritadigan muloqotning sir asrorlarini o'rgangan yoshlarni tarbiyalash uchun keng imkoniyatlar yaratib kelinmoqda.

Jahonning rivojlangan mamlakatlarida oliy ta'lim tizimida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, ularni sifat jihatidan takomillashtirish, ta'limning mintaqaviy xususiyatlarini e'tiborga olish, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini rivojlantirish borasida keng ko'lamdagi ishlar amalga oshirilmoqda. BMTning 2030 yilgacha mo'ljallangan barqaror rivojlanish kontseptsiyasida "ta'lim tizimini boshqarish, ta'lim sifatini baholash jarayoni va vositalarini takomillashtirish mexanizmlarini amaliyotga joriy etish"¹ dolzarb vazifa etib belgilangan.

O'zbekistonda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jamiyatda tub sifat o'zgarishlarini hamda yaqin istiqbolda barqaror rivojlanishni ta'minlash imkonini beradigan oliy ta'lim tizimini shakllantirishni talab etmoqda.

Boshqarishning tarixiy ildizlari juda qadimiy bo'lib, odamlarning ibtidoiy tuzumda jamoa, guruh-guruh bo'lib yashash davrlariga borib taqaladi. Lekin

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018 yil 28 dekabr. – www.uza.uz.

boshqaruv g'oyasining vujudga kelishi, rivojlanishi, fan sifatida shakllanishi va tan olinishi XIX asrning II yarmi - XX asr boshlariga to'g'ri keladi.

Dastlabki paytlarda boshqaruv harbiy xususiyatga ega bo'lib, asosan quyidagi jihatlar bilan ajralib turgan:

- boshqarish rahbarlar tomonidan buyruq va tazyiq o'tkazish yo'li bilan amalga oshirilgan;

- rahbarlar vorislik bo'yicha tayinlangan;

- o'rta bo'g'in rahbarlari juda kam bo'lgan va boshqalar.

Boshqaruvning yuqorida ko'rsatilgan xususiyatlari keyingi davrlarda G'arb va Sharq mamlakatlarida ham, Markaziy Osiyo va Turkiston zaminidagi xonliklar davrlarida ham saqlanib qolgan.

Boshqaruv muammosi hamma vaqt jamiyat oldida kundalang turgan, ko'p olimlar uni yechishga harakat qilgan, lekin ularning tadqiqotlari ilmiy asosga ega bo'lmagan va boshqarishning umumiy nazariyasini bunyod eta olmagan. Boshqaruv inson miyasiga taqqoslanadi, bunda shaxsning yaratuvchilik imkoniyatlari mujassamlangan, undan uning ijodiy qobiliyatini namoyon etishligiga ko'rsatma beriladi. Boshqaruv faoliyatining mohiyati to'g'risida g'oyalar, tushunchalar, mulohazalar, uni madaniy tarzda amalga oshirish tamoyillari, shakllari va usullari haqida tizim mavjuddir.

Insoniyat tomonidan fan-texnika, iqtisodiyot va ijtimoiy muvaffaqiyatlar tobora oshirilib borishiga ko'ra boshqaruv faoliyatining ilmga bo'lgan talabi ham to'xtovsiz o'sib boradi. Bir tomondan, fan boshqaruv faoliyatini kontseptual boyitishdan manfaatdor bo'lsa, ikkinchi tomondan amaliyotchi boshqaruvchilar o'z faoliyatini ilmiy idrok etish, uni nazariy asoslashga intiladi. Bunday ilmiy yondashish ehtiyojini quyidagi holatlar bilan izohlash mumkin.

Birinchidan, boshqaruvning nodir xususiyati: biror yo'qdan muayyan nimanidir qilish, tarqoq unsurlardan tizim tuzish, bunda kelishuv va tartibga solish unga xos bo'lgan xususiyat hisoblanadi.

Ikkinchidan, rahbar tasarrufida bo'lgan yoki u javobgar hisoblangan qadriyatlar qo'lamining jadal oshishi.

Uchinchidan, insonlar kuch-g'ayratiga asoslangan boshqaruvning yaratuvchilik samarasi rahbariyatdan har tomonlama ma'lumotlilik, o'z kasbning ustasi bo'lishlik va tizimli yondoshishni talab qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak boshqaruv, bu hamisha hukmronlik, insonlar ustidan amr etishlik imkoni, lekin hokimlik oqilona bo'lishi zarur.